

**O‘ZBEKISTONDA EKOLOGIK EKSPERTIZA VA EKOLOGIK NAZORAT
TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH IQTIBOSLARI**

Boymirzayeva Madina¹

¹ ““TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti talabasi

Omonullayeva Muxtabar¹

¹ ““TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti talabasi

Axatova Nozinabonu¹

¹ ““TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti talabasi

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 14.07.2024

Revised: 15.07.2024

Accepted: 16.07.2024

KALIT SO‘ZLAR:

ekologik ekspertiza
tizimi, ekologik
muammolar, atrof-
muhitni muhofaza
qilish, tabiiy muhitga
ta’sir, ekologik
talablar, ekologik
nazorat.

Ushbu maqolada O‘zbekistonda ekologik ekspertiza va ekologik nazorat tizimini takomillashtirish masalalari tahlil qilinadi. Ekologik ekspertiza – Respublika hududida rejalashtirilayotgan yoki amalga oshirilayotgan xo‘jalik va boshqa turdagi faoliyatning ekologik talablarga muvofiqligini aniqlash jarayoni sifatida baholanadi, shu jumladan Respublika hududida ekologik ekspertizani yanada rivojlantirish borasidagi, xususan davlat ekologik ekspertizasi markazi tomonidan olib borilayotgan ishlar ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, ekologik nazorat tizimini rivojlantirishga qaratilgan milliy qonun hujjatlari hamda xalqaro tajribalar o‘rganilib, tizimni takomillashtirish bo‘yicha takliflar beriladi.

KIRISH. Hozirgi kunda ekologik ekspertiza global va mahalliy miqyosda juda dolzarb masalalardan biri bo‘lib, atrof-muhitni muhofaza qilish, barqaror rivojlanish va inson salomatligini saqlash uchun katta ahamiyat kasb etadi. Bilamizki, butun dunyo global isish, suv va havo ifloslanishi kabi muammolar bilan kurashmoqda, bu kabi muammolar esa yer sharining ahvolini kundan kunga yomonlashtirmoqda. Masalan, 2024-yilda global harorat birinchi marta sanoatgacha bo‘lgan darajadan 1,5°C ga oshib ketdi, bu iqlim o‘zgarishining jadallashayotganini ko‘rsatadi.[1] Ushbu raqamlar ekologik muammolarning dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi va ularni hal etish uchun global miqyosda hamkorlik zarurligini ko‘rsatadi. Yevropa Ittifoqida EIA direktivkasi (2011/92/EU) barcha a‘zo davlatlarda yirik loyihalar uchun EIA o‘tkazilishini ta’lab qiladi.[2] Ekologik ekspertiza esa aynan iqlim o‘zgarishi, sanoat ifloslanishi, tabiat resurslarining kamayishi, salomatlik muammolari kabi dolzarb masalalarni hal qilishda muhim vositadir. Uning samarali ishlashi davlat va jamiyat uchun hamda uning manfaatlari uchun katta ahamiyatga molik hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, ekologik ekspertiza turli loyihalarning tabiiy muhitga ta’sirini baholash va potensial salbiy oqibatlarining oldini olish vositasi hisoblanadi. Ayniqsa, sanoat korxonalari,

qurilish loyihalari va energetika obyektlari kabi yirik infratuzilma loyihalarining ekologik talablarga muvofiqligini ta'minlash bugungi kunda ustuvor yo'nalishlardan biridir. Ekologik ekspertizaning asosiy maqsadlaridan biri – tabiat resurslaridan oqilona foydalanish va kelajak avlodlar uchun ekologik xavfsiz sharoit yaratishdir. Aynan ekologik ekspertiza natijasida erishish mumkin bo'lgan foydali yutuqlar nafaqat ekologik muammolarni hal qilishda shu bilan birga resurslardan oqilona foydalanishga, iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishga yordam beradi. Zero, ekologik ekspertiza natijasida atrof-muhitga zarar yetkazilishi mumkin bo'lgan loyihalarning faoliyati to'xtatilishi yoki qayta ko'rib chiqilib, kamchiliklari bartaraf etilishi mumkin. Muhimligi ham aynan bu borada bir qator qonunlar va xalqaro hujjatlarda aks ettirilgan, jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa Iqtisodiy Komissiyasi "Ekologik ekspertizasi to'g'risida"gi, "Espoo konvensiya"si, "Orxus konvensiyasi", "Ekologik normativlar loyihalarini ishlab chiqish va kelishish tartibi to'g'risida" gi, "Atrof-muhitga ta'sirni baholash mexanizmini yanada takomillashtirish to'g'risida" gi, "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi, "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida" gi qonunlari ishlab chiqilgan hamda Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasining ekologik ekspertizani o'tkazish bo'yicha bo'linmalari tashkil qilingan.

Atrof-muhitga nisbatan e'tiborsizlik nafaqat bitta davlatning ekologik muammosi, balki unga yaqin davlatlarning ham umumiy muammosi hisoblanadi. Ekologiya sohasidagi munosabatlarni tartibga solish borasida qonunlar qabul qilib, davlat funksiyasi darajasida chora-tadbirlar va islohotlar o'tkazish, shuningdek, davlat organlari tomonidan nazorat qilinishining o'zi ham kifoya qilmaydi. Chunki ekologik muammolar chegaralarni tan olmaydi va bir hududda yuzaga kelgan ekologik inqiroz qo'shni davlatlarga ham ta'sir ko'rsatishini inkor eta olmaymiz. Masalan, daryolar va havoning ifloslanishi, o'rmonlarning kesilishi yoki chiqindilarni noto'g'ri boshqarish natijasida yuzaga keladigan ekologik muammolar global miqyosda ham sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Misol uchun Orol dengizining qurishi to'g'ridan-to'g'ri ikki davlatga - O'zbekiston va Qozog'istonga eng katta zarar yetkazmoqda, biroq uning qurishi bilvosita Markaziy Osiyo davlatlariga ham tahdid solmoqda.[3] Shu sababli, ekologik muammolarni hal qilishda xalqaro hamkorlik, qo'shni davlatlar o'rtasidagi ekologik bitimlar va birgalikdagi chora-tadbirlar juda muhimdir. Masalan, Orxus Konvensiyasi 1998-yil 25-iyunda Daniyaning Orxus shahrida BMT Yevropa Iqtisodiy Komissiyasi (UNECE) tomonidan qabul qilingan. Ushbu konvensiya atrof-muhit masalalarida axborot olish, jamoatchilik ishtiroki va adolatga erishish huquqlarini mustahkamlashga qaratilgan.[4] Shuning uchun ham O'zbekiston aynan ekologik muammolarni bartaraf etish tizimini yaxshilash, atrof-muhitga oid ma'lumotlarga ochiq kirish, jamoatchilik ishtirokini ta'minlash va sudga murojaat qilish huquqlarini belgilovchi Orxus konvensiyasiga qo'shildi. Hujjat 11-mart, 2025-yildan rasman kuchga kirdi va qonun Milliy qonunchilik ma'lumotlar bazasida e'lon qilindi. Demak, ekologik

muammolar faqat mahalliy darajada emas, balki mintaqaviy va global miqyosda ham hal qilinishi lozim. Bu esa ekologik ekspertiza va ekologik nazorat tizimlarining samarali ishlashini talab qiladi.

Asosiy qism. 2000-yil 25-mayda qabul qilingan “Ekologik ekspertiza to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining [5] qabul qilinishi bu sohadagi muhim qadamlardan biri bo‘ldi. Qonunning asosiy maqsadi atrof-muhitga ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan faoliyatni oldindan baholash va ekologik xavfsizlikni ta‘minlash orqali ekologik nazoratni o‘rnatish hisoblanadi. Ekologik ekspertiza o‘tkazishning asosiy maqsadlari mo‘ljallanayotgan xo‘jalik va boshqa xil faoliyatni amalga oshirish to‘g‘risida qaror qabul qilinishidan oldingi bosqichlarida bunday faoliyatning ekologik talablarga muvofiqligini aniqlash, rejalashtirilayotgan yoki amalga oshirilayotgan xo‘jalik va boshqa xil faoliyat atrof-tabiiy muhit holatiga va fuqarolar sog‘lig‘iga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lsa yoki shunday ta‘sir ko‘rsatayotgan bo‘lsa, bunday faoliyatning ekologik xavflilik darajasini aniqlash, atrof-tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo‘yicha nazarda tutilayotgan tadbirlarning yetarliligi va asosililigini aniqlashdir [6]. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida davlat ekologik ekspertizasini o‘tkazish 1997-yilda joriy etilgan [7] hamda markaz o‘z faoliyatini “Ekologik ekspertiza to‘g‘risida”gi qonunga asosan amalga oshiradi. Ushbu qonun atrof-muhit va inson salomatligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan faoliyatlarni nazorat qilish hamda barqaror rivojlanishni ta‘minlashga yo‘naltirilgan. Mazkur qonunga asosan tashkil etilgan Davlat ekologik ekspertizasi markazi quyidagi ishlarni bajaradi:

Davlat ekologik ekspertizasini o‘tkazish – qurilish, sanoat, qishloq xo‘jaligi va boshqa loyihalarning atrof-muhitga ta‘sirini baholab, ularning ekologik me‘yorlarga mosligini tekshiradi.

Ekologik xavfsizlikni ta‘minlash – ekologik xavf tug‘diruvchi loyihalarni tahlil qilib, ularning oldini olish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqadi va texnologik jarayonlarning ekologik talablarga mosligini nazorat qiladi.

Monitoring va nazorat – korxonalar va loyihalarning ekologik talablarga rioya qilishini tekshirish, shuningdek, ekologik ekspertiza xulosalarida belgilangan talablarning bajarilishini kuzatib borish.

Fuqarolar murojaatlarini ko‘rib chiqish – aholi va tashkilotlarning ekologik masalalar bo‘yicha murojaatlarini tahlil qilish va ekologik qonunchilik buzilishlarini bartaraf etish bo‘yicha choralar ishlab chiqish.

Ekologik loyihalarni ishlab chiqishda ko‘maklashish – atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan innovatsion texnologiyalarni joriy etishni qo‘llab-quvvatlash va ekologik muammolarni bartaraf etishga yo‘naltirilgan loyihalarni amalga oshirish [8].

Shunday qilib, O‘zbekistonda ekologik ekspertiza tizimi davlat ekologik nazoratining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, uning asosiy maqsadi atrof-muhitga salbiy ta‘sirni minimallashtirish va ekologik xavfsizlikni ta‘minlashdan iborat.

Xalqaro hamkorliklardan esa Orxus konvensiyasi atrof-muhit masalalarida jamoatchilikning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan bo'lib, konvensiyada ekologik ekspertiza bo'yicha asosiy tamoyillari fuqarolar va jamoat tashkilotlari atrof-muhitga ta'sir qiluvchi loyihalar bo'yicha ekspertiza jarayonida ishtirok etish huquqiga, qaror qabul qilishdan oldin jamoatchilik ekologik ekspertiza natijalari bilan tanishishi va o'z fikrini bildirish imkoniyatiga ega bo'lishi, har qanday yirik loyiha yoki faoliyat boshlanishidan oldin uning atrof-muhitga ta'siri baholanishi, davlat organlari atrof-muhitga oid ekologik ekspertiza natijalari va ekologik xavf bo'yicha ma'lumotlarni erkin taqdim etishi, axborot yashirish yoki unga cheklov qo'yish holatlari minimal darajada bo'lishi, agar ekologik ekspertiza jarayonida jamoatchilik huquqlari buzilsa yoki e'tirozlari inobatga olinmasa, sudga murojaat qilish imkoniyati bo'lishi kerak [9].

Ekologik ekspertiza va ekologik nazorat tizimi faoliyatini yanada takomillashtirish uchun :

1. Ekologik ekspertiza jarayonini shaffoflashtirish ya'ni onlayn ekologik ekspertiza platformasini yaratish, fuqarolarning ishtirokini kengaytirish, korxonalarining ekologik ma'suliyatini oshirish;
2. Ekologik nazorat tizimini kuchaytirish maqsadida ekologik monitoring tizimini avtomatlashtirish, sun'iy intellekt va IoT texnologiyalaridan foydalanish, korxonalarga ekologik reyting berish;
3. Ekologik qonunchilikni takomillashtirish, ekologik ekspertiza natijalariga asoslangan soliqlar belgilash, ekologik ekspertizani majburiy qilish;
4. Jamoatchilik nazoratini kuchaytirish va ekologik ta'lim va targ'ibot ishlari.

Korxonalar faoliyatining ekologik me'yorlarga mosligini baholash maqsadida ekologik reyting tizimini joriy etish muhim sanaladi. Ushbu tizim asosida korxonalar ekologik talab va standartlarga amal qilish darajasiga qarab baholanadi. Yuqori reytingga ega bo'lgan korxonalar davlat tomonidan rag'batlantiriladi, bu esa ularni ekologik xavfsiz texnologiyalarga o'tishga undaydi. Shuningdek, ekologik soliq mexanizmini rivojlantirish ham muhimdir. Atrof-muhitga zarar yetkazuvchi faoliyat bilan shug'ullanuvchi korxonalar uchun soliq yuklamasi oshirilishi kerak. Bu yondashuv ekologik toza texnologiyalarga o'tish zaruratini kuchaytirib, korxonalarni chiqindilarni kamaytirishga qaysidir ma'noda majbur qiladi. Natijada davlat byudjetiga tushum ortib, ushbu mablag'lar ekologik loyihalarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilishi mumkin. Ekologik nazorat samaradorligini oshirishda zamonaviy texnologiyalar, xususan, IOT (Internet of Things) yechimlarining o'rni beqiyos.[10] Sensorlar, kameralar va boshqa qurilmalar yordamida real vaqt rejimida ma'lumot yig'ish va tahlil qilish mumkin. Bu esa ekologik monitoring jarayonlarini avtomatlashtirish, atrof-muhitga zarar yetkazuvchi holatlarni aniqlash va tezkor choralar ko'rishga yordam beradi. Ekologik nazoratni raqamlashtirish orqali ekspertiza jarayonlari tezlashtiriladi, inson omiliga bog'liq xatolar kamayadi hamda shaffoflik ta'minlanadi. Ushbu fiklar ekologik monitoringga oid fundamental ilmiy qo'llanmada ham keng

yoritilgan. Ya'ni sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar ekologik xavflarni oldindan bashorat qilish hamda ekologik boshqaruvni samarali amalga oshirishga yordam berishi ta'kidlangan.[11] Ushbu mexanizmlar ekologik xavfsizlikni oshirish bilan birga, mamlakatning umumiy iqtisodiy barqarorligiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ekologik ekspertiza natijalari asosida qat'iy qoidalar belgilanishi va ushbu ekspertizaning majburiyligi ta'minlanishi lozim. Bu orqali atrof-muhitga zarar yetkazuvchi loyihalar oldindan nazorat qilinadi va ularning salbiy oqibatlarini minimallashtirish mumkin bo'ladi. Shuningdek, ekologik qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish, muhofaza choralarining natijadorligini oshirish va jamoatchilik ishtirokini kengaytirish zarur. Fuqarolar va tadbirkorlarning ekologik madaniyatini oshirish ham ekologik xavfsizlikni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Ushbu muhim omilning ahamiyatini falsafiy nazariyaga ko'ra ko'rib chiqamiz. Unga ko'ra, insoniyatning rivojlanishi ekologik xavfsizlik bilan uyg'un bo'lishi kerak, aks holda ekologik inqiroz yuzaga kelishi mumkin. Ekologik ekspertiza natijalari asosida qat'iy qoidalarining belgilanishi va ekspertizani majburiy qilish orqali atrof-muhitga zarar yetkazuvchi loyihalar oldindan nazorat qilinadi. Shu sababli, ekologik soliq mexanizimiga ehtiyoj seziladi. Ya'ni atrof muhitga zarar yetkazuvchi faoliyat bilan shug'ullanuvchi korxonalar ko'proq soliq to'laydi. Bu ularga zararli chiqindilarni kamaytirish va ekologik toza usullarga o'tish zarurligini anglatadi. Ekologik soliqlar byudjetga qo'shimcha tushum olib kelib, ushbu mablag'lar ekologik loyihalarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilishi mumkin. Bu esa ekologik barqarorlikka xizmat qiladi. Atrof muhit huquqi bo'yicha tadqiqot olib borgan olim BMTning atrof-muhit bo'yicha sobiq loyiha maslahatchisi Nilufar Bayoniy ta'kidlaganidek, ekologik nazorat tizimlarida jamoatchilik ishtirokining amalga oshirilishi ekologik adolat va fuqarolarning huquqlarini himoya qilishga xizmat qiladi.[12] Bu Orxus konvensiyasi tamoyillariga ham mos keladi. Shunday ekan, online platforma yaratilishi va fuqarolar ishtirokining kengaytirishi ekotizimga ta'sir qiluvchi qarorlarning ochiqiligini ta'minlaydi.

Xulosa. O'zbekistonda ekologik ekspertiza va ekologik nazorat tizimini takomillashtirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Ushbu maqolada mazkur tizimni rivojlantirish zarurati, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari tahlil qilindi. Xususan, ekologik ekspertizaning huquqiy asoslarini mustahkamlash, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va davlat ekologik nazoratining samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratish lozimligi ta'kidlandi. Ekologik muhofaza tizimining barqaror ishlashini ta'minlash uchun fuqarolar va tadbirkorlarning ekologik madaniyatini yuksaltirish muhim omillardan biri ekanligi qayd etildi. Ekologik nazoratni kuchaytirish va ekspertiza jarayonlarini raqamlashtirish orqali atrof-muhitga zarar yetkazuvchi faoliyatlarning oldini olish mumkinligi ko'rsatib o'tildi. Maqolada ekologik qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish, muhofaza choralari samaradorligini oshirish va jamoatchilik ishtirokini kengaytirish bo'yicha takliflar ilgari surildi. Umuman olganda, O'zbekistonda ekologik

ekspertiza va nazorat tizimini takomillashtirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va barqaror rivojlanishni ta'minlashda muhim omil ekanligi asoslab berildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ekologik yo'nalishga ixtisoslashgan platforma - <https://greeninitiative.eco/uz/>
2. Yevropa Ittifoqining rasmiy huquqiy portal - <https://eur-lex.europa>.
3. Markaziy iqlim o'zgarishi oqibatlari - https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Markaziy_Osiyoda_iqlim_o%27zgarishi_oqibatlari
4. O'zbekiston Orxus Konvensiyasini ratifikatsiya qildi - <https://anhor.uz/uzl/news/ozbekiston-orxus-konvensiyasini-ratifikatsiya-qildi/>
5. "Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi qonun - <https://lex.uz/docs/-32955>
6. Ekologik ekspertiza to'g'risida - <https://eco.gov.uz/uz/site/news?id=1453&utm>
7. "Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi qonun - <https://lex.uz/docs/-32955>
8. "Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi qonun - <https://lex.uz/docs/-32955>
9. O'zbekiston Orxus konvensiyasini ratifikatsiya qildi - <https://anhor.uz/uzl/news/ozbekiston-orxus-konvensiyasini-ratifikatsiya-qildi/>
10. IOT texnologiyasi - <https://zenodo.org/records/14645274>
11. Ekologik monitoringga oid fundamental ilmiy qo'llanma - <https://www.taylorfrancis.com/books/edit/10.1201/9780203495476/environmental-monitoring>
12. Xalqaro ilmiy kengash - <https://uz.council.science/news/showing-solidarity-for>